

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MEDIA TA’LIM VOSITALARDAN
FOYDALANISH KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK TIZIMI VA SHART-SHAROITLARI**

Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD)

Najmuddinova Saodat Abduvohid qizi

FarDU Pedagogika yo‘nalishi I-kurs talabasi

Annatatsiya: *Mazkur maqolada, mediakompetentlik pedagogikada umumiy tarzda shaxsning turli ko‘rinish, janr va shakllardagi mediamatnni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish, uzatish va sotsiumda mediafaoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo‘ladigan integrative sifati tarzida qaralishi haqida yoritib berilgan. Shuningdek, o‘qituvchilarda media ta’lim vositalaridan foydalanishni rivojlantirish haqida aytib o‘tilgan.*

Аннотация: В данной статье медиакомпетентность рассматривается в педагогике в целом как интегративное качество личности, которое проявляется в выборе, использовании, критическом анализе, оценке, создании, передаче и готовности к анализу сложных процессов медиадеятельности в обществе, данное также было упомянуто о развитии использования инструментов медиаобразования среди учителей.

Abstract: *In this article, media competence is considered in pedagogy in general as an integrative quality of a person, which is manifested in the selection, use, critical analysis, evaluation, creation, transmission and readiness to analyze the complex processes of media activity in society. given It was also mentioned about the development of the use of media education tools among teachers.*

Kirish so‘zlar: *media ta’lim, sotsium, sintez, kasbiy-mutaxassislik kompetentligi, tendensiya, kommunikatsion, media savodxonlik, electron tijorat, globallashuv, tadbirlar kompleksi, pedagogik salohiyat.*

Ключевые слова: *медиаобразование, общество, синтез, профессиональная компетентность, тенденция, коммуникация, медиаграмотность, электронная коммерция, глобализация, событийный комплекс, педагогический потенциал.*

Key words: *media education, society, synthesis, professional competence, tendency, communication, media literacy, electronic commerce, globalization, event complex, pedagogical potential.*

KIRISH

Axborot jamiyatiga o'tish davrida ta'limga asoslangan noan'anaviy maktab modeli ijtimoiy buyurtmaga asosan kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. Axborot ta'limga muhitida axborot barcha turlari hajmining keskin o'sishi bilan har bir yangi avlod umuman o'zgacha bilimlarni talab qiluvchi yangi sharoitlarga duch kelmoqda. Shuning uchun zamonaviy ta'limga muassasasi ijobiy fikrlovchi, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga, talabalarda axborot ko'lamidan to'g'ri foydalana olish ko'nikma, malakasini ishlab chiqish, innovatsion tehnologiyalarni egallash, bilimlarni chuqurlashtirib va kengaytirib mustaqil o'rganish vazifasini o'z oldiga qo'yadi. Ta'limga axborotlashtirish o'qituvchilar kasbiy-mutaxassislik sifati va ularni tayyorlash darajasi yangi talablarni qo'yadi. Ta'limga takomillashtirish mazmunida bo'lajak o'qituvchini tayyorlash sifati media ta'limga vositalaridan foydalana olish ko'nikmalarini egallagan bilim va tajribalaridan ma'lum vaziyatlarda foydalanish malakasini xarakterlovchi kasbiy-mutaxassislik kompetentligi sifatida qaralishi lozim. O'qituvchilikning kasbiy-mutaxassislik kompetentligi o'z ichiga turli tarkibiy, jumladan, media ta'limga vositalarini ham oladi.

Dunyo rivojlanishining asosiy tendensiyalari orasida axborotlashgan jamiyatga o'tish muhim vazifa, ya'ni jamiyatning barcha jabhalarida media vositalarining ta'siri dolzarb muammo sanaladi. Yevropa Ittifoqi Parlament Assambleyasining qonunchilik yig'ilishi tavsiyasiga binoan dasturiy vositalarning ishlab chiqarilishi yoshlar va kattalarning mediakompetentligi shakllanishiga turki bo'ladi, shuningdek, zamonaviy jamiyatning media madaniyatiga ta'sir etadigan ajralmas omil sifatida qaraladi.¹ Zamonaviy axborot-kommunikatsiya tehnologiyalari muhitiga asoslangan axborotlashtirilgan jamiyatning tarkibiy qismlari—bu media, til hamda madaniyatdir. Aynan biz yashayotgan dunyoning tili va madaniyatini insondagi mediakompetentlik tashkil etadi. Dunyoda mediakompetentlikning ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO tavsiyalarida alohida ta'kidlanib, pedagoglar mediakompetentligini rivojlantirish g'oyasi qo'llab-quvvatlangan.

Media kompetentlik pedagogikada umumiyligi tarzda shaxsning turli ko'rinish, janr va shakllardagi media matnni tanlash, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda mediafaoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladigan integrative sifati tarzida qaraladi. Shuning uchun pedagogika oliy ta'limga muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish masalasi fan va amaliyot oldida turgan dolzrb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos holda pedagogik oliy ta'limga muassasalari talabalarining media borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali media

¹ Yevropa Ittifoqi Parlament Assambleyasining qonunchilik yig'ilishi. Hujjat №8753.—Fransiya, Strasburg. 6-iyun 2000-yil.

kompetentlikni rivojlantirish tehnologiyasini yaratish pedagogik to‘nalishdagi tadqiqotlar orasida alohida ahamiyat kasb etadi.

“Media ta’lim”, “media tadqiqotlari” va “mediasavodxonlik” tushunchalari hozirgi kunda maktab va universitet darajasida zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylandi. 1990-yillarning oxirlarida media ta’lim masalasida pedagogikaning nazariy va amaliy doirasida eng qizg‘in munozara bo‘lgan. 1980-yillardayoq YUNESKO media ta’limni pedagogikaning ustuvor maqsadi, axborot omilini esa barcha darajasidagi o’smirlar va yoshlarni o‘qitishning yetakchi omili deb e’lon qilib, media ta’limni zamonaviy muloqot va ifoda usullarini o‘rganish va o‘rgatish sifatida belgilab berdi.

Axborot jamiyatiga o‘tishsharoitida ta’limga asoslangan noan’anaviy maktab modeli ijtimoiy buyurtmaga asosan kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. Axborot ta’lim sharoitida axborot barcha turlari hajmining keskin o‘sishi bilan har bir yangi avlod umuman o‘zgacha bilimlarni talab qiluvchi yangi sharoitlarga duch kelmoqda. Shuning uchun zamonaviy ta’lim muassasasi ijtimoiy faol, ijobiy fikrlovchi shaxsni shakllantirishga, talabalarda axborot oqimidan to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikma, malakasini ishlab chiqish, innovatsion tehnologiyalarni egallash, bilimlarni chuqurlashtirib va kengaytirib mustaqil o‘rganish vazifasini o‘z oldiga qo‘yadi. Bilimli yondashuvdan kompetentli yondashuvga e’tiborni ko‘chirish muammosi milliy ta’limni modernizatsiyalashga ko‘ra, ayniqsa, dolzarbdir. Ta’limdagi islohotlar oliy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash strategiyasida ta’lim muassasasi faoliyatining asosiy natijasi bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar tizimining o‘zingga emas, balki fuqarolik-huquqiy, tilga oid, kommunikatsion, axborot va boshqa sohalardagi asosiy kompetentliklar majmuiga ega bo‘lgan bitiruvchi bo‘lishi kerakligi belgilangan.

Maktab o‘qituvchilaridan media ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tayanch o‘qituvchilarni olish uchun ko‘p harakat qilishi kerak. Ushbu fan bo‘yicha tayyorlangan o‘qituvchi yoshlarning ijtimoiylashuviga hissa qo‘shadigan omillar, madaniyat, ommaviy axborot vositalari va ularning munosabatlarini tushunish yaxshiroqdir.² Maktab o‘quvchilarini o‘qitish uchun media-ta’lim tehnologiyasining amaliy tajribasini umumlashtirib berdi, bu esa qiziquvchanlik, savollarni shakllantirish, izohlash, sintez va ifodalash kabi asosiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Talabalarning axborot va zamonaviy tehnologik vositalardan mas’uliyat bilan foydalanishlari uchun shart-sharoit yaratishlari zarur.

ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODLAR

O‘zbekistonda o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish muammosi pedagogikaning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri sifatida mahalliy olimlar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Xususan, bo‘lajak o‘qituvchilarda media ta’lim vositalaridan foydalanish kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha R.X.Djuraev,

² Frau-Meigs, D. (ed.)(2006). Media Education: AKit for Teachers, Students, Parents and Professionals. Paris: UNESCO. <http://unesdoc.unesco.org/images/0014/001492/149278e.pdf>

A.R.Xodjabaev, N.N.Azizzodjaeva, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, X.F.Rashidov, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Z.K.Ismailova, Q.T.Olimov, M.B.Urazova, J.A.Hamidov, D.O.Ximmataliev, B.A.Nazarova, B.S.Nuriddinov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. MDH mamlakatlari olimlari O.A.Abdulina, L.V.Andropova, Yu.K.Babanskiy, V.P.Bespalko, S.Ya.Batishev, Ye.M.Borisova, I.V.Grishina, E.F.Zeer, N.V.Kuzmina, S.N.Mironenko, V.A.Slastenin, T.M.Sarokina va boshqalar tomonidan bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda pedagogic tehnologiyalarni qo'llash, kasbiy-pedagogik tayyorlash samaradorligini oshirish tehnologiyalarini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. G.Spenser, B.Blum, R.Mohan, H.Miyakasha, Jagatrahan, G.Kulanthaivel, Y.Xuqin kabi xorijiy mamlakatlar olimlarining tadqiqotlarida ta'limda ijodkorlik, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, kompetentlik masalalari, kasbiy-pedagogik yetuklik muammolari, pedagogic dasturiy vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish nazariyasi va amaliy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning ilmiy-tadqiqot ishlarini, oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar tayyorlash jarayonini tashkil etishi, fanlarni o'qitish, malakaviy pedagogik amaliyat holatini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, kompetentli yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish tehnologiyasini takomillashtirish imkoniyatlari yetarlicha yoritilmagan, bu esa mazkur muammoni tadqiq etish zaruratini taqozo etadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot talablardan kelib chiqqan hold abo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligining metodologik va ilmiy-metodik asoslari, tamoyillari, pedagogic shart-sharoitlarini aniqlash, kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish tehnologiyalarini kompetentli yondashuv asosida ishlab chiqish hamda amaliyatga tatbiq etish zaruriyati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-soni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-soni "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 4-dekabrdagi 353-soni Qarori bilan tasdiqlangan 2016-2018-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida electron tijoratni rivojlantirish konsepsiysi va uni amalga oshirish bo'yicha tadbirlar kompleksi, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi. Gazeta, jurnal, radio, televideniya, fotografiya, hujjatli va badiiy kino, axborot agentliklari, internet son jihatdan beqiyos o'sdi, sifat jihatdan sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Kompyuter, faks, "uyali"

telefon, parabolic antenna, electron pochta kabi mo‘jizalar ommaviy axborot vositalari rivojiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektualsalohiyatlari, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada axborot-kommunikatsiya tehnologiyalari vositalari hisoblanmish—televideniya, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari o‘z samarasini ko‘rsatmoqda.

Mutaxassislar fikricha, media ta’lim o‘quvchini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishslash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Ta’lim jarayonida media ta’lim qanchalik mukammal bo‘lsa, u yosh avlodning dunyoqarashi, intellectual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi. Demak, bugun media ta’lim sirlarini nazariy jihatdan puxta o‘rganib, amaliyotda yetarli darajada qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Axborot kommunikatsiyaning globallashuvi sharoitida ta’lim jarayonida o‘ziga xos talablar paydo bo‘lmoqda. Bu talablar bevosita media ta’lim bilan chambarchas bog‘liqdir.

XULOSA

Shunday qilib, bugungi kunda media ta’lim kasbiy fanlarni o‘rganish jarayonining elementlaridan biridir. Talabalar ommaviy axborot vositalarining pedagogik salohiyatini o‘rganishlari kerakligi aniq. Biz “O‘qitishdagi zamonaviy media” professional kompaniyalar uyushmasining maktabdan tashqari mashg‘ulotlar dasturiga kiritish imkoniyatini ko‘rib chiqamiz. Zamonaviy tadqiqotlarning yo‘nalishi bo‘lajak o‘qituvchilarni kasb-hunarga o‘rgatishda ommaviy axborot vositalarining roli juda aniq belgilab berilgan. Bu ta’lim muassasasida media ta’limni tashkil etishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish, aniq vositalar, ommaviy axborot vositalarini tanlash va sinovdan o‘tkazish, fanning tegishli maqsadliligi va mazmunidan iborat. Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilarning ommaviy axborot vositalarida o‘z-o‘zini tarbiyalashini rag‘batlantirishning samarali usullarini izlash. Bo‘lajak o‘qituvchilarning darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ommaviy axborot vositalarini o‘z ichiga olgan vositalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Sinfdan tashqari uyushmalar hamfikrlar hamjamiyati sifatida media ta’limning maqsadlari, mazmuni va usullarini o‘rganish va ochishga yordam beradi. Turli tehnologiyalarni adekvat sintez qilish texnikasi va vositalari kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirish yo‘lidir. Media ta’lim tehnologiyasi kelajakdagi o‘qituvchi shaxsini shakllantirish jarayonida organik, qiymatga yo‘naltirilgan va talabga ega. Bunday media ta’lim vositalaridan foydalanish bir-birini to‘ldirib boradi va undan foydalanib darslarida qo‘llagan o‘qituvchilar zamonaviy o‘qituvchilardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.—T.:”O‘zbekiston”,2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.(28.12.2018y.)
4. R.X.Alimov.—Axborot tehnologiyasi va tizimlari||,T.:2011.-36b.
5. Siyosiy matn tahlili (metodologiya, nazariya, amaliyot).—Y.:”Akademika”,2010.
6. Sharifxo‘jayev M. o‘zbekistonda ochiq Fuqarolik jamiyatining shakllanishi. — T.:Sharq,2003.
7. Hazanov I.Y. Tools of media education in the training of future teachers. Media. Information. Communication.2014.